

8.1. Ushbu shartnomaning bekor qilinishi Foydalanuvchiga berilgan ruxsatnomalarning bekor qilinishiga olib keladi va taqdim etilgan radiochastotalar boshqa foydalanuvchilarga birlashtirilishi mumkin.

8.2. Foydalanuvchining balansi (ijara)dagi REVlar ro'yxati shartnomaga ilova tariqasida berilishi shart va uni amalga oshirilish jarayonida tomonlar ro'yxatga aniqliklar kiritishlari mumkin.

8.3. Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlarga muvofiq yoki tomonlarning kelishuviga binoan amalga oshiriladi.

9. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Shartnomaning muddati ruxsatnomalarning amal qilish muddati bilan belgilanadi, ammo u foydalanuvchiga telekommunikatsiya sohasidagi faoliyat turi uchun berilgan litsenziyaning amal qilish muddatidan uzoqroq bo'lishi mumkin emas.

9.2. REVlardan foydalanish uchun ruxsatnomalarning muddatini uzaytirganda, shartnomaning muddati keyingi amal qilish davriga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

9.3 Ushbu shartnoma quyidagi hollarda avtomatik ravishda bekor qilinadi:

- REVlar ishini to'liq tugatish va Foydalanuvchining taqdim etilgan radiochastotalardan bosh tortishi;

- REVlardan foydalanish uchun berilgan ruxsatnomalarni bekor qilinishi;

- telekommunikatsiya sohasidagi faoliyat turi uchun Foydalanuvchiga berilgan litsenziyaning to'xtatilishi yoki bekor qilinishi.

9.4. Tomonlarning biri shartnoma talablarini buzishi oqibatida boshqa tomon tashabbusi bilan shartnoma faoliyati to'xtatilishi mumkin. Shartnomaning to'xtatilishi to'g'risida bir tomon, shartnoma to'xtatilishi muddatidan bir oy oldin yozma holda ikkinchi tomonni ogohlantiradi.

9.5. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va "31" dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

Jizzax viloyati «EMMX»

Jizzax viloyati, Jizzax shahri,

Sh.Rashidov ko'chasi, 46-uy

Hisob raqam 20210000300155263050

AT "Aloqabank" Jizzax XKKM

MFO 00401 STIR 201057444

OKED 61900

QQS kodi: 326080011605

Tel: 72 226-40-42

Usmanov D.Yu.

Foydalanuvchi

